

Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy loyihalar mavzusi

“Huquq fanlari” yo‘nalishi

№	Amaliy loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
	Kibermakonda sodir etilgan jinoyatlarni fosh etish hamda jinoyatlarga qarshi kurashishda zamonaviy kriminalistik faoliyatni joriy etish uchun mo'ljallangan “Raqamli dalillar yagona reestri” idoralararo avtomatlashtirilgan tizimini ishlab chiqish 	Tadqiqotning shakli: Amaliy. Ilmiy-tadqiqot natijalari: - kibermakonda sodir etilgan jinoyatlarni fosh etishga oid ma'lumotlar o'rganiladi hamda tahlil qilinadi; - axborot texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etilgan jinoyatlar bo'yicha statistik va zamonaviy kriminalistik tahlil uchun keng qamrovli ma'lumotlar bazasi ishlab chiqiladi; - ma'lumotlar bazasi asosida zamonaviy kriminalistik faoliyatni joriy etish maqsadida raqamli dalillarning yagona reyestri yaratiladi; - axborot texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etilgan jinoyatlarning o'zaro bog'liqligini aniqlash va tahlil qilish, shuningdek uyushgan guruh jinoiy tuzilmalarini identifikatsiyalashga xizmat qiladigan kompleks analitik tizim ishlab chiqiladi; - idoralararo ma'lumot almashinuvi uchun maxsus himoyalangan aloqa tarmog'i yaratiladi; - raqamli dalillarni protsessual normalar va axborot xavfsizligi talablariga muvofiq saqlash va himoya qilish tizimi yaratiladi; - reestrga kiritiladigan kriminalistik ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarning kengaytirilgan ro'yxati ishlab chiqiladi; - “Raqamli dalillar yagona reestri”ni shakllantirish va undan foydalanish tartibi ishlab chiqiladi; - “Raqamli dalillar yagona reestri” idoralararo avtomatlashtirilgan axborot tizimini yaratish bo'yicha texnik topshiriq ishlab chiqiladi; - kibermakonda sodir etilgan jinoyatlarni fosh etish hamda jinoyatlarga qarshi kurashishda zamonaviy kriminalistik faoliyatni joriy etish uchun “Raqamli dalillar yagona reestri” idoralararo avtomatlashtirilgan axborot tizimini yaratiladi; - jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari mansabdor shaxslari hamda sud ekspertiza muassasalari ekspert-kriminalistlarini avtomatlashtirilgan axborot tizimidan foydalanishda ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha o'quv mashg'ulotlari bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Natijalarni sinovdan o'tkazish: Tadqiqot natijalari Bosh prokuratura tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o'tkaziladi. Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. Izoh: Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Bosh prokuraturaning qo'llab-quvvatlash xati mavjud bo'lganida qabul qilinadi.